IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
SPECIAL ISSUE, VOLUME 5, ISSUE 2, 2023

FARG‘ONA VILOYATIDA SANATOR - KURORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Xalilov Sirojiddin Sherali o`g`li

PhD, Alfraganus Universiteti

Xolmurodova Shahnoza G‘anisher qizi

Alfraganus Universiteti Magistranti

Annotatsiya

Maqolada Farg‘ona viloyatida joylashgan sanator-kurortlar davolash yo‘nalishini taklif qiladigan xizmatlarni faoliyati tahlil qilingan va takomillashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Ma’lumotlarni to’plashda Farg‘ona viloyatida joylashgan sanator-kurort obyektlariga tashrif buyurilgan va rahbariyat tomonidan taqdim etilgan. Ushbu ma’lumotalarni tahlil qilishda viloyatda mavjud 12 ta sanatoriyalar joylashuvi jihatidan va tashrif buyuruvchilar soni taqqoslash usulidan foydalanilgan. Tadqiqot so‘ngida viloyatda sanator kurort obyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida takomillashtirish modeli taklif etilgan.

Kalit so’zlar

Davolash, sanatoriya, sanator-kurort, kurort tizimi, iqlim, bolalar sanatoriyasi.

Абстракт

В статье анализируется деятельность санаторно-курортных учреждений Ферганской области, предлагающих лечение, и разрабатываются механизмы оздоровления. При сборе данных были посещены и представлены руководством санаторно-курортные учреждения, расположенные в Ферганской области.

При анализе этих данных сравнивались расположение 12 санаториев области и количество посетителей. По завершению исследования предложена модель благоустройства с целью дальнейшего развития деятельности санаторно-курортных учреждений региона.

Ключевые слова

Лечение, санаторий, санаторно-курортный, климат, детский санаторий.


Abstract

The article analyzes the activities of sanatorium-resorts located in Fergana region, which offer treatment, and develops improvement mechanisms. When collecting data, sanatorium-resort facilities located in Fergana region were visited and presented by the management. In the analysis of this data, the location of 12 sanatoriums in the region and the number of visitors were compared. At the end of the research, an improvement model was proposed in order to further develop the activity of sanatorium spa facilities in the region.

Key words


Treatment, sanatorium, sanatorium-resort, climate, children's sanatorium.

I. Kirish. Xozirgi davr talabiga ko‘ra sanator-kurort muassasalari muhim omil hisoblanib bormoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda kuzatilayotgan turli kasalliklarning kelib chiqishi, masalan, Covid-19 ning mamlakatimizga kirib kelishi sog‘lomlashtirish manzillarini ko‘paytirish va rivojlantirishga chuqur turtki bo‘ldi. Shuningdek, bu sohaga alohida e’tibor qaratilib, keng ko’lamli ishlar olib borilmoqda. Bunga misol qilib shuni aytishimiz mumkin-ki O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.11.2021 yildagi 693-soniga muvofiq aholiga sanatoriyalarda davolanish uchun yo’llanmalar berish sohasiga axborot texnologiyalari joriy etilmoqda. Unga ko‘ra, sanatoriy tizimini raqamlashtirish maqsadida “Elektron sanatoriy” platformasini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Platformani texnik xizmatlari sifatli bo’lishi uchun Sog’liqni saqlash vazirligi muassasidagi “It-Med” ma’suliyati cheklangan jamiyat tomonidan amalga oshirilishi kutilmoqda. Bunday turdagi platformani yaratishdan ko’zlangan maqsad aholining sanatoriy dam olish uylariga borishini osonlashtirishdir.



1-rasm. Platformada mavjud qulayliklar.

Yuqorida aytib o‘tilgan platforma orqali sanatoriylarda dam olish istagida bo‘lgan aholi uchun yo’llanma olish uchun murojatlar elektron axborot tizim orqali xisobga olinadi, xisobga olingan yo‘llanmalarni kuzatish imkonini beruvchi mexanizm joriy etildi. Shuningdek, sanatoriylardagi bo‘sh ish o‘rinlari haqida yangiliklar muntazam ravishda yoritilib boriladi. Bunga qo’shimcha ravishda keksa yoshdagi va nogironligi bo’lgan aholi uchun ma’lum bir imtiyozlar taqdim etiladi. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko’ra O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan sanator-kurortlar soni 217 tani tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich 2016-yilga nisbatan 1,2 oshdi.



2- rasm. Mamlakatimizdagi sanator-kurortlar soni (2016-2020).

II. Adabiyotlar tahlili. D.Z.Norqulova (mustaqil izlanuvchi, SamISI) tomonidan sanator-kurort yo‘nalishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot tahlil natijalarini keltirib o‘taman. Uning fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda sanator-kurort va dam olish maskanlarining faoliyat yuritish tizimi Rossiya Federatsiyasining ushbu tizimiga o‘xshash bo‘lganligi uchun ularni bir-biri bilan solishtirish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil natijasiga ko‘ra shunisi aniqlandi-ki, O‘zbekiston hududida bolalar sanatoriylari va sanator tipdagi yozgi oromgohlar faoliyatini kengaytirish, ya’ni ularning sonini oshirish va ayrimlarining yil davomida ishlashlarini ta’minlash maqsadga muvofiqdir. Buni amalga oshirish yo’lida reklama targ‘ibot ishlarini kengaytirish, dam olish uylari infratuzilmasini takomillashtirish, aholini dam olish uylariga borishni rag‘batlantirish kabi ishlarni amalga oshirish kerak.

Sanatoriya va dam olish uylari asosan tabiat qo‘ynida, turar joylardan uzoqroqda, asosiy transport trassalaridan, vokzal va aeroportlardan uzoqroqda joylashishi kerak. Shu sababli sanatoriya va dam olish uylari kerakli yo‘l belgilari mavjud bo‘lgan qulay transport yo‘llariga, yaxshi joylashgan va yoritilgan hududga, korxonalarning nomi va toifasi aniq ko’rsatilgan peshtaxta yozuviga ega bo‘lishi kerak. Sanatoriy va dam olish uylari qulay ekologik sharoitlarda joylashishi, joylashish vaqtida mehmonlarning hayoti va sog‘lig‘iga hamda ularning mulki xavfsizligi ta’minlanishi, ham odatiy, ham favqulotda vaziyatlarda mehmonlarning bemalol harakatlanishini ta’minlaydigan axborotli ko‘rsatkichlar, avariya holatidagi harakatlanish yo‘laklari yaxshi jihozlangan bo’lishi, yong‘inga qarshi himoya tizimlari yong’in xavfsizligi qoidalarida ko‘rsatilgan himoya qilish va ogohlantirish vositalari bilan jihozlanish, xonalar tozaligi, santexnik uskunalar ishlashi, axlatlarni chiqarish va hasharotlardan samarali himoya qilish sohasida sanitar-epidemiologik nazorat organlari tomonidan belgilangan sanitar-gigiyenik me’yor va qoidalarga rioya qilishi kerak. Rekreatsion xizmatlar taklif qiluvchi sub’yektlar sifatida sanatoriy va dam olish uylarida turistlar dam olishi va sog‘lomlashtirishi uchun qulay sharoit yaratuvchi ekologik va iqlimiy xususiyatlarga ega bo‘lgan landshaft va jihozlangan hududga ega bo‘lishi, sanatoriy va dam olish uylarining hududi ko‘kalamlashtirilgan, chegaralangan va qorong‘u vaqtda yoritilgan bo’lishi, hududning funksional vazifalardan kelib chiqqan holda bir necha qismlarga ajratish maqsadga muvofiq (joylashuv, ovqatlanish, sog’lomlashtirish,jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish, qabul qilish, dam olish hududlari). Tabiiy madaniy o’simliklar ekish madsadga muvofiqdir.

Kurortda davolanish xarajatlarini davlat tomonidan qo‘shma moliyalashtirish tizimini to‘liq tiklash va tibbiy sabablarga ko‘ra reabilitatsiyaga muhtoj shaxslar ro‘yxatini kengaytirish hisobiga turli toifadagi fuqarolarning kurortda davolanish imkoniyatini oshirish kurort majmuasini rivojlantirishga kuchli turtki bo‘ladi.

Sanator-kurort majmuasini paydo bo‘lish omillari biri qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, tabiiy geologik resurslar orasida shifobaxsh suvlar alohida o‘rin va ahamiyatga ega. Bular yer yuzasi ostidagi tog‘ jinslarida erkin tarqalgan. Bu xususiyat termomineral suvlarning ayrim turlarining geologik resurslarini yaratadi, ular Yerdagi suv bug‘larining muntazam aylanishi asosida tabiiy resurslarni tiklaydi deya ta’kidlab o‘tkan Salaxov.

Sanator-kurort davolash tizimini modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko’rsatish mumkin:

- Davlat ijtimoiy yordami doirasida fuqarolarning ayrim toifalarini sanator-kurortda davolashni ta’minlash. Ushbu bosqichning bir qismi sifatida fuqarolarning tibbiy ko‘rsatkichlari quyi darajada bo’lgan fuqarolarni sanator-kurortda davolanishlarini ta’minlash - asosiy kasalliklarning oldini olish uchun samara beradi. Fuqarolarning imtiyozli toifalarini sanator-

kurortda davolash xizmatlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan byudjet mablag'lari belgilash metodini o'zgartirish zarur;

- Sanator-kurortda davolanish imkoniyatini oshirish. Bunda ya'ni kattalar va bolalarni sanator-kurortda davolash uchun zamonaviy sanator-kurort va davolashni tashkil etishni tartibi va samarali ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar natijasida jabrlangan, shuningdek zararli va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omillari bilan ishlaydigan sug'urtalangan fuqarolarga sanatoriy-kurortda davolanishni ta'minlash;
- Sanator-kurort xizmatini takomillashtirishtirish uchun asosiy yo'nalishlardan biri hududlarda turistik-rekreatsion turdagi maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkillash; hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan sanator-kurort muassasalarining shakllari va turlarini kengaytirish uchun xizmat qiladigan dam olish va sanator-kurort xizmatlari bilan uyg'unlikda ishlash kerak.

Sanator - kurortlar mahalliy darajada qo'shimcha yoki muqobil hisoblanmaydigan bir qator muolajalarni taklif etadi, masalan, termoterapiya, gidroterapiya, elektroterapiya, yorug'lik terapiyasi va klimatoterapiya. Bunday muolajalarda sanatoriyalar odatda atrof-muhitning mineral suvlari, o'tlar va loy kabi tabiiy resurslaridan foydalanadilar (Bihari-Axelsson va Axelsson, 2002).

Sanator -kurort yo'nalishidagi mehmonxonada davolanish uchun zarur bo'lgan bir yo'nalishdagi vaucher davolanish uchun olinadi va be'mor kelganida majburiy tibbiy tekshiruvlardan o'tkaziladi, odatda 10-24 kun davom etadigan tavsiya asosida davolash dasturi yo'lga qo'yiladi.

Sanator -kurort tizimini takomillashishi va uning rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy nuqtai nazardan investitsiyalar bilan bog'liq. Sanator-kurort funksiyaviy tuzilishiga ko'ra asosiy oltita bozor funksiyasini ko'rsatadi sanator-kurort xizmatlari: sog'lomlashtirish, profilaktika, biznes, ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy va ekologik (1 chizma).

Sanator – kurort dam olish maskanlariga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida sanator xizmatlarini sertifikatlashtirish tizimini ishlab chiqish zarur, shuningdek, kurort mehmonxonalar uchun yulduzlar tizimi kabi davolash, ovqatlanish va joylashtirishni kompleks baholashni o'z ichiga oladi.

Bu taklif, birinchidan, sanator-kurort tashkilotlarining kompleks xizmat ko'rsatishi uchun, ikkinchidan, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini baholash uchun yo'lga qo'yilishi kerak (Regalin Vladislav Valentinovich).

Shubhasiz, "sanator-kurort tashkiloti", "reabilitatsiya muassasasi", "dam olishni tashkil etish" tushunchalari bir xil emas. Huquqiy sohada "reabilitatsiya" atamasi qo'llaniladi. Ba'zi mamlakatlarda reabilitatsiya faqat salomatlikni tiklash deb tushunilgan, boshqalarida bu tushuncha mehnat qobiliyatini tiklash va yana boshqalarida jabrlanganlarga moddiy yordam ko'rsatish deb atalgan.

G.P. Busygin sanator-sog'lomlashtirish xizmatini "profilaktika, davolash, diagnostika, reabilitatsiya va tiklanish, shuningdek, sanator-sog'lomlashtirish tibbiy xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha kompleks xizmat", deb ta'riflaydi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda sanator-kurort xizmati turizm biznesini muhim bir qismiga aylanib bormoqda. Sog'liqni saqlash xizmatlariga: sanator va kurortlarda (sanatoriyalar, pansionatlar) joylashtirish, davolash va boshqa xizmatlar kiradi; sanatoriy xizmatlariga sanatoriy-kurortda davolanishga yo'llanma (sayohat) narxi kiradi.

Sanator-sog'lomlashtirish xizmatlariga quyidagilar kirmaydi: sanator-sog'lomlashtirish muassasalari xodimlariga ovqatlanish uchun to'lov miqdori; sanatoriy hududida joylashgan, lekin mustaqil yuridik shaxs bo'lgan tashkilotlar tomonidan dam oluvchilarga ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlar narxi, masalan, sartaroshxona, massaj xonasi va boshqalar.

- sanatoriy va sog'lomlashtirish tashkilotlari tomonidan dam oluvchilarga yo'llanmalar narxidan ortiq haq evaziga ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlar uchun aholiga to'lanadigan to'lov miqdori: stomatologiya, kosmetika, massaj va boshqa davolash xonalari xizmatlari, televizor, muzlatgich va boshqa xizmatlar bilan ta'minlash;
- dam oluvchining iltimosiga binoan xonadagi jihozlar, dam olish uchun qo'shimcha qulayliklar yaratib, ularning hajmi tegishli xizmatlar uchun hisobga olinishi kerak (masalan, tibbiy xizmat sifatida stomatologiya kabineti xizmatlari). Alohida hollarda, agar tashkilotning hisob siyosati ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlar hajmlarini alohida hisobga olishga imkon bermasa, ular sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlari hajmida hisobga olinishi kerak;
- boshqa tashkilotlarga, masalan, sayyohlik kompaniyalariga yoki ijtimoiy sug'urta fondlariga sotish uchun o'tkazilgan vaucherlarning qiymati;
- barcha darajadagi byudjetlar va byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan fuqarolarning imtiyozli toifalariga, masalan, Ulug' Vatan urushi qatnashchilari va nogironlariga, mehnat faxriylariga va boshqalarga beriladigan sanatoriy-kurortda davolanish uchun yo'llanmalar narxi bepul bo'ladi.

Yangi tendentsiyalar munosabati bilan kurort tushunchasi biroz o'zgardi. Bugungi kunda zamonaviy dam olish maskanlari tibbiyot va dam olish maskanlariga aylanib bormoqda. Sanatoriy-kurort faoliyatining ahamiyati mamlakat sog'lig'ini saqlashda muhim o'rin tutadi, bu ko'p jihatdan ijtimoiy himoya darajasi, ayniqsa, mehnatga layoqatli aholi bilan belgilanadi.

Oxirgi guruh - sanator-kurort majmuasining umumiy hajmining taxminan 10% - xususiy sog'lomlashtirish kurortlari. Ularning strategiyalari boshqacha: ba'zilari qurishda davom etmoqda tibbiyot muassasalari sifatida faoliyat yuritsa, boshqalar tuzilmani bosqichma-bosqich qayta tashkil etishni amalga oshiradilar, o'zlarining tibbiy bazasini sezilarli darajada qisqartiradilar, faqat mashhur tibbiy va diagnostika xizmatlari (massaj, gidropatiya, akupunktur, kosmetologiya) va qo'shimchalarni rivojlantirishga harakat qilmoqdalar.

III. **Metodologiya.** Maqolamning avvalgi bobida Farg'ona viloyatida sanator - kurort xizmatlarini takomillashtirish usullari bo'yicha bir nechta chet davlat olimlari adabiyotlarini tahlil qildik. Adabiyotlar tahlilida Farg'ona viloyatida sanator - kurort xizmatlarini takomillashtirish usullari bo'yicha mavjud nazariyalar o'rganildi va mamlakatimizdagi sanator- kurortlarni tashkil etish va rivojlantirish jarayonlari tahlil etildi. Tahlil davomida 2019 -2021 yillardagi statistik ma'limotlar qo'llanildi. Statistik manba sifatida, " Golden Pages – Uzbekistan " ning

ma’lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqot mavzusi doirasidan muammoni atroflicha tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdi-ki viloyatda joylashgan sanatoriyalar ichida eng ko‘p xizmat ko‘rsatadigani bu Farg’ona viloyati Chimyon shaharchasida joylashgan “Chimyon” sanatoriyasidir. Bir yil davomida sanatoriyaga besh mingga yaqin dam oluvchilar tashrif buyurgani aniqlandi. Yillar davomida “Chimyon” sanatoriyasi sifatli xizmat taklif etuvchi sanatoriyalar safidan joy egallagan. Sanatoriya tog‘li hududda joylashgani bois havo harorati doim salqin va mo‘tadil. Asosiy davolash yo‘nalishi: qon aylanish tizimi kasalliklari, turli xil teri kasalliklari, asab tizimi, tayanch harakatlanish tizimida muammolari bor be’morlarni davolaydi. Bundan tashqari, sanatoriyada tuzli g‘orlar mavjud bo‘lib nafas olish tizimi uchun foydali bo‘lgan muolajalarni taklif qiladi, fizioterapiya , gidrovanna – turli xil tabbiy shifobaxsh suvlar bilan davolash xizmatlari xam mavjud. Tashrif buyuruvchi be’morlarning ko‘p qismini nafaqada bo‘lganlar tashkil etadi. Viloyatimizning turli hududlarida turxi xil kasalliklarni davolovchi sanatoriylar bo‘lib , ular orasida Farg‘ona viloyatining Avval shaharchasida joylashgan “Yetti buloq” sanatoriyasi o‘zining shifobaxsh davolovchi suvi bilan mashxur. Sanatoriya besh gektardan ko‘proq bo‘lgan qalin igna bargli xududda joylashgan. Asosiy davolash yonalishi oshqozon-ichak, nafas olish tizimidagi kasalliklarni davolashga qaratilgan. Shunga qaramay pandemiya oqibatida sanatoriyaga tashrif buyuruvchilar soni yildan yilga kamayib bormoqdaligi tahlil natijasida aniqlandi. Ma’lumot o‘rnida qo’shib ketishimiz mumkin bo’lgan statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2019-yilda sanator- kurort dam olish maskaniga bir yil davomida 53,789 ming kishi tashrif buyurganligi aniqlandi. 2020 -yilda bu ko‘rsatgich 57,329 ming kishini tashkil etgan. 2019- yilda pandemiya oqibatida bu ko‘rsatgichlar 70% ga kamaygani aniqlandi, ya’ni sanator - kurortga tashrif buyuruvchilar soni o‘rtacha 17,377 kishini tashkil etgan.

IV.Natija. Maqolamizning metodologiya qismida ko‘rsatib o‘tilgan ma’lumotlardan shuni ko‘rishimiz mumkin-ki, viloyatimizdagi sanator -kurort majmualarining asosiy qismi tog‘ hududlarda joylashgan va turli xil kasalliklarni davolashga mo‘ljallangan. Biroq, viloyatimizda sanator – kurort majmualarini tashkil etish uchun barcha resurslar (joy,tabiiy iqlim, mineral suvlar va h.k) mavjud bo‘lsa-da, ayrim omillar hisobiga ushbu yo‘nalish yetarlicha takomillashmaganligini ko‘rishimiz mumkin.



3-rasm. Mamlakatimizda sanator – kurort tizimini isloh qilish mexanizmi.

Viloyatimizda sanator -kurortni rivojlantirish uchun 2-rasmda keltirib o‘tilgan mexanizmlarni bosqichma bosqich amalga oshirish kerak. Sanator - kurort tizimini takomillashtirish uchun birinchi navbatta tizimni davlat tomonidan tartibga solinishi, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan qat’iy nazorat qilinishi kerak. Ikkinchi asosiy inobatga olinishi kerak bo‘lgan jihatlardan biri bu sanator – kurortlarda davolanishi uchun imtiyozlar. Hozirgi kunda mavjud imtiyozlar turi bu korxonalarda tajribali ishchi xodimlar uchun sanator-kurortda davolanish uchun imtiyozli yo‘llanmalar taqdim etilishi. Bunga qo‘shimcha imtiyozlar yaratish maqsadida nogironligi mavjud aholi qatlanmali uchun, nafaqa yoshdagi qariyalar, urush qatnashchilari uchun imtiyozli yo‘llanmalar tashkil etish tizimni takomillashtirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

V. Xulosa va takliflar. Dunyo bo‘ylab tibbiyot tizimi jadal rivojlanayotgan bir paytda, Farg‘ona viloyatida sanator- kurort tizimida xam sezilarli o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Lekin shunga qaramay, yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, yurtimizda sanator- kurort tizimining holati rivojlanish jarayonida turganligini ko‘rishimiz mumkin. Sanator-kurort tizimini rivojlantirishdan maqsad, aholi salomatligini yaxshilash, sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, kasallikdan so‘ng organizmni qayta tiklanishiga yordam berish, kasalliklar rivojlanishini oldini olish va aholini ish bilan ta’minlashdan iboratdir.

Yuqorida keltirib o‘tilgan adabiyotlar tahlilidan ham ko‘rishimiz mumkinki, sanator – kurortlar asosan tabiat qo‘ynida, qalin igna bargli o‘rmonlar orasida, asosiy transport trassalaridan, vokzal va aeroportlar, zavod va fabrikaldan uzoqroqda joylashgan bo‘lishi kerak. Favqulotda avariya holatidagi harakatlanish yo‘laklari yaxshi jihozlangan bo’lishi, yong‘inga qarshi himoya tizimlari yong‘in xavfsizligi qoidalarida ko‘rsatilgan himoya qilish va ogohlantirish vositalari bilan to‘liq jihozlanagan bo‘lishi kerak. sanator-kurortlar – tabiiy iqlim, mineral suvlar, davolovchi loy, shifobaxsh o‘simliklar hamda fizioterapevtik vositalarni qo’llagan holda sanator-sog‘lomlashtirish va rekreatsion xizmatlar majmuasini taklif etadi. Ushbu soxani rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalaga oshirish soha rivoji uchun samarali ta’sir qiladi. Buning uchun birinchi navbatda hozirgi kunda keng ommalashib borayotgan xususiylashtirishdan foydalangan holda yakka tartibdagi tadbirkorlarga sanator – kurort tashkil etishga mo‘ljallangan bo‘sh yer o‘rinlari ajratish va ularga amaliy yordam berish kerak.

Sanatot – kurort tizimini xususiylashtirishning foydalari:

- Erkin qaror qabul qilish.
- Xukumat resurslariga tobe bo‘lib qolmaslik.

- Moliyaviy mustaqillik
- Raqobatbardoshlikni oshirish
- Siyosiy bosimning yo‘qligi
- Kuchli marketing tizimiga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda sanator – kurortlar sonini ko‘paytirish va ushbu tizimini takomillashtirish orqali aholi sog‘lig‘ini tiklashga, ularning bandligini oshirishga va keng jamoatchilikni jalb qilishga erishish mumkin. Shuningdek, ushbu soxa iqtisodiyotning o‘sishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/8944

2. Axmedova Rashida Muqimovna.Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti Tarix fanini o‘qitish metodikasi kafedrasi katta oqituvchisi
3.D.I. Aslanov.
4. О.А.Никитина(2008) Нормирование Как Функция Управления Устойчивым Развитием Региональных Санаторно-Курортных Комплексов
5. Salaxov S. Sh. (2022) The importance of Sanatorium-resort complexes for medical treatments in Azerbaijan. International Journal of Terrestrial Heat Flow and Applied Geothermics.

6. Наталья Корчажкина. (2013) Совершенствование системы санаторно-курортного лечения в Российской Федерации

7. Бусыгин Г.Р. Организационно-экономический механизм управления санаторно-оздоровительным комплексом региона (2006.)

8.Vetitnev A.M., Zhuravleva L.B. Farmon. op. S. 13.
bolomits O.N. Kurort xizmatlari sifatini belgilovchi qiymat omillari // Ilmiy ishlar Kuban davlat texnologiya universiteti. 2017. No 1. P. 135–146.
9.http://www.consultant.ru/
10. "Konsepsiya" ilmiy -metodik elektron jurnali. - 2017. - No S5. - 0,4 p.l. – URL: http://e-koncept.ru/2017/470071.htm
11. https://www.goldenpages.uz/company/?Id=40158
12.M.C. Оборин, Т.А. Нагоева, Н.В. Фролова “системный анализ инструментов продвижения рынка Санаторно-курортных услуг”(2016)
13. D.Z.Norqulova (Mustaqil izlanuvchi, SamISI)
14. https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-sanatoriya-kurort-muassasalari